

“Bilimkent” doirasida ilmiy seminar tashkil etildi

O`zR FA Tarix va Sharqshunoslik institutlari Yosh olimlar Kengashlari tomonidan “Bilimkent” doirasida yana bir onlayn ilmiy seminar tashkil etildi.

Seminarda FA Milliy arxeologiya markazi direktori, arxeolog olim, tarix fanlari nomzodi Farxod Maqsudov “O`rta asrlarda tog`li Ustrushona ko`chmanchi madaniyati” mavzusida ma`ruza qildi.



Ma`ruzada O`rta Osiyo arxeologiyasida ko`chmanchi madaniyati, arxeologik tadqiqotlar olib borilgan Toshbuloq qabristoni va ilk islomiy ko`mish udumlari, o`rta asr ipak yo`li tizimi va uning ahamiyati haqidagi qiziqarli ma`lumotlar taqdim etildi.

